



## SHAYBONIYLAR TOMONIDAN MOVAROUNNAHRDA YARATILGAN ILMIY-MADANIY MUHIT

**Egamberdiyeva Zulfiya Zafar qizi**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

e-mail: [zulfiyaegamberdiyeva13@gmail.com](mailto:zulfiyaegamberdiyeva13@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18410755>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Movarounnahrda shakllangan ilmiy va madaniy muhitning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Unda madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlarning faoliyati, diniy va dunyoviy fanlarning rivojlanishidagi o'ziga xosliklar, shuningdek adabiyot, me'morchilik, tarixnavislik an'anlari va ulamolarning jamiyatdagi mavqeyi haqida qisqa ilmiy xulosa beriladi.

**Kalit so'zlar:** Shayboniylar davlati, Movarunnahr, ilm-fan, adabiyot, san'at, me'morchilik, din, tibbiyot, astronomiya, matematika, tarixnavislik, Shayboniixon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II, Samarqand, Buxoro, Hirot.

**Аннотация:** В статье анализируются основные направления научно-культурной среды, сформировавшейся в период правления династии Шейбанидов. В статье дается краткий научный обзор деятельности медресе библиотек и научных центров, особенностей развития религиозных и светских наук, а также традиций литературы, мемуаристики, историографии и положения ученых в обществе.

**Ключевые слова:** Государство Шейбанидов, Movarunnahr, наука, литература, искусство, архитектура, от , лекарство, астрономия , математика, историография, Шайбани Хан ,Убайдулла Хан, Абдулла Хан II, Самарканд, Бухара, Герат.

**Abstract:** This article analyzes the main directions of the scientific and cultural environment formed in Transoxiana during the reign of the Shaybani dynasty. It provides a brief scientific summary of the activities of madrasas, libraries and scientific centers, the peculiarities of the development of religious and secular sciences, as well as the traditions of literature, memoirs, historiography and the position of scholars in society.

**Keywords:** Shaybanid state, Movarounnahr, science, literature, art, architecture, religion, medicine, astronomy, mathematics, historyography, Shaibani Khan, Ubaidullah Khan, Abdullah Khan, Samarkand, Bukhara, Herat.

Shayboniylar davri Movarounnahr tarixida o'ziga xos ilmiy va madaniy rivojlanish bosqichini tashkil etadi. XVI asr boshlarida Markaziy Osiyoda siyosiy barqarorlik o'rnatilishi bilan birga, ilm-fan va madaniyat sohalarida ham sezilarli





yutuqlar kuzatilgan. Bu davrda ilmiy va madaniy hayot jamiyatning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, uning shakllanishida hukmdorlar, olimlar, shoirlar va ijodkorlarning hissasi muhim rol o'ynagan.

Shayboniylar davri ilmiy-madaniy muhiti nafaqat diniy bilimlarni o'rganishga, balki tarix, adabiyot, falsafa, tibbiyot, matematika va astronomiya sohalarida ilmiy izlanishlarga ham yo'naltirilgan edi. Movarounnahrning markaziy shaharlarida faoliyat yuritgan shoirlar, tarixchilar, faylasuf va olimlar o'z asarlarida ilmiy bilimlar bilan birga jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayotini ham aks ettirgan. Shu bilan birga, Movarounnahr ilm-fan va madaniyatining rivojlanishi, siyosiy barqarorlik bilan uyg'unlashib, ushbu hududning mintaqa miqyosida yetakchi madaniy markazga aylanishini ta'minlagan. Ular olimlarni rag'batlantirib, ilmiy markazlar va kutubxonalar barpo etgan, shuningdek madrasalarda ilmiy va ma'rifiy faoliyatni rivojlantirish uchun mablag'lar ajratishgan[1.511]. Ayniqsa Muhammad Shayboniyxon va uning vorislari Ko'chkunchixon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II kabi hukmdorlarning, shuningdek ushbu davrda yashagan alloma va mutafakkirlarning madaniy siyosatlari va ilm-fanga qo'shgan hissalarini e'tiborga molikdir.

Shayboniylar davrida ilmiy-madaniy muhit va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik juda muhim edi. Shayboniylar davri ilmiy-madaniy muhitni tadqiq qilish orqali hukmdor sulolalarning madaniyat va ilm-fanga qo'shgan hissasini aniqlash, jamiyatdagi ilmiy va adabiy an'analarni yoritish hamda ularni kelajak avlodga yetkazish mumkin. Shu tariqa, Shayboniylar davri ilmiy-madaniy muhitini o'rganish, Markaziy Osiyo tarixida madaniyat va ilm-fan rivojining barqarorligini anglash va jamiyat hayotida ularning o'rni hamda ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Biz ushbu maqolada tarixiy manbalar asosida shayboniylarning madaniy siyosati orqali xalq manaviy hayotiga ta'sirini tahlil qilamiz.

### **Natijalar va muhokama**

Shayboniylar hokimiyati Movarounnahr tarixida o'ziga xos burilish yasagan davr sanaladi. Siyosiy barqarorlikning tiklanishi, davlat boshqaruvining markazlashuvi va yangi sulolaning paydo bo'lishi mintaqaning ilmiy hamda madaniy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda ilmiy muhit bir-biriga bog'liq bo'lgan ko'plab omillar ta'sirida shakillandi: diniy siyosat, madrasalar faoliyati, ulamolar mavqeyi, tarixiy merosga munosabat, tashqi siyosiy tahdidlar va iqtisodiy imkoniyatlar. Har bir omil mintaqada ilmiy taraqqiyotning yo'nalishini belgilab berdi. Bu jarayonlarda bir tomondan ilmiy merosni saqlab qolish, ikkinchi tomondan esa yangi sharoitga mos ilmiy an'ana yaratishga bo'lgan





urinishlar kuzatildi. Shayboniylar Movarounnahrni egallagach, temuriylardan qolgan yirik ilmiy-madaniy markazlarga ega bo'ldi. Samarqand, Buxoro va Hirot kabi shaharlarda shakllangan ilmiy an'analar ma'lum darajada o'z ta'sirini saqlab qoldi. Erondagi shoh Ismoilning sunniylarga qarshi kurashi Hirotlik shoirlar va sunniy ulamolarning Buxoroga ko'chishiga sabab bo'ladi[7.81].

Davlat siyosati diniy birlikni mustahkamlashga qaratilgani sababli Qur'on, hadis ilmi va fiqh ilmiga katta e'tibor berildi. Shunga qaramay, dunyoviy fanlarning ham butunlay yo'qolib ketishi kuzatilmadi. Tibbiyot, matematika, astronomiya va tarix kabi fanlar rivojlanib, nodir asarlar yaratildi. Tibbiyot sohasida mashhur tabiblar yetishib chiqqan bo'lib, ulardan "tabiblar iftixori" deb atalgan Muhammad Mazid, ko'z kasalliklarini davolashda yangicha usullarni ishlab chiqqan mavlono Baqo, "Dastur al-iloj" ("Davolash bo'yicha dastur") asari muallifi Sultonali Samarqandiy, "Ko'z kasalligiga doir asosiy kitob" asari bilan mashhur Ubaydullo Kahhol kabi tabiblar ayniqsa mashhurdir. 1574-yilda Abdullaxon betobligida uni davolagan Mavlono Abdulhakim ham zamonasining mashhur tabiblaridan biri bo'lgan[2.277]. Matematika sohasida Muhammad Amin, Bobokalon Samarqandiy, mavlono Kavkaviylar, astranomiya sohasi rivojiga esa "Qibla tomonni topish marifati" asari muallifi Muhammad Husayni Buxoriy, "Oy fazolarining tengligi haqida risola" asari muallifi Mahmud ibn Ahmad Faroziyar munosib hissa qo'shganlar.

Shayboniylar davrida tarixnavislik alohida ehtiromga loyiq bo'lib, tarix sohasiga oid ko'plab asarlar yaratildi. Ulardan eng mashxurlari Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Fazlulloh ibn Ro'zbexonning "Tarixi Rahidiy", Hofiz Tanish al-Buxoriyning "Abdullanoma" ("Sharafnomayi shohiy") kabi asarlardir. Xususan, yetuk davlat arbobi Muhammad Shayboniyxonning o'zi ham mohir shoir bo'lib, she'riy uslubda betakror asarlar yaratgan[6.20] Uning qalamiga mansub "Devon" asarida Shayboniyxonning ishq, tabiat gozalliklari bilan bir qatorda tarixiy voqealar, boshidan kechirganlari, yaqin qarindoshlari va u olib borgan janglar she'riy tarzda bayon qilingan bo'lib, uning bizgacha yagona nusxada yetib kelgani asar qiymatini yanada oshiradi[1.510].

Ta'lim sohasida Shayboniylar hukmdorlari maktablar va madrasalarni rivojlantirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan edilar. Fazlulloh ibn Ro'zbexonning "Mehmonnomayi Buxoro" asaridan ham ma'lumki Muhammad Shayboniyxon ilm-fan, madaniyat va san'at ahlini hurmat qilgan va ularga homiylik qilgan. Ilm-fanni rag'batlantirishga bo'lgan sa'y-harakatlari orasida olimlarni oddiy xalq uchun dars berishga yo'naltirishga bo'lgan faoliyatini ham






ko'rishimiz mumkin[8.88]. Ta'lim sohasidagi islohotiga ko'ra ta'limning quyi bosqichi maktab bo'lib, har bir mahallada maktablar ochildi, ayrim xonadonlarda esa uy ta'limi ham joriy qilindi. Bolalarning 6 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinishi va keyinchalik madrasalarda o'qishini davom ettirishi ta'lim tizmining izchil olib borilganini ko'rsatadi. Shayboniy hukmdorlar homiyligi ostida yangi madrasalar qurilgan, jumladan Ubaydullaxon tomonidan 535-536-yillarda Buxoroda qurilgan Mir Arab madrasasi[1.524.], Abdullaxon II davrida qurilgan Qulbobo Ko'kaldosh madrasasi va Abdullaxon kutubxonasi o'z davrining mashxur ilm-ma'rifat o'chog'i bo'lib xizmat qilgan.[3.28.]

Madrasalarda ulamolarning mavqeyi nihoyatda baland bo'lgan. Ular nafaqat ta'lim beruvchi, balki hukmdorlarga maslahat beruvchi, jamiyatda diniy va axloqiy normalarni belgilovchi kuch sifatida faoliyat ko'rsatdilar. Ulamolarning qarashlari o'quv dasturiga bevosita ta'sir etdi. Masalan, ayrim ulamolar falsafaga ehtiyotkorlik bilan qarab, uni madrasalardan chetlashtirishga intilgan bo'lsa, boshqalari falsafa va aqliy fanlarning diniy bilimlarni tushunishga yordamchi vosita ekanini ta'kidlagan. Ushbu qarama-qarshiliklar ilmiy muhitning umumiy manzarasini belgilab berdi. Madrasalardagi ta'lim jarayoni o'sha davrning ilmiy muhitini tushinishda juda muhim hisoblanadi. Ta'lim avvalo diniy matnlarni yodlash, so'ng ularni sharhlashga asoslangan edi. Ko'plab talabalarning asosiy maqsadi Qur'on va hadisni chuqur o'rganish, fiqhiy ilmni egallash bo'ldi. Bu o'quv dasturlari jamiyat ehtiyojiga mos kelgan bo'lsada, dunyoviy fanlar rivojlanishini cheklab qo'ydi. Amaliy fanlar, tibbiyot yoki matematika sohalari faqat zarur bo'lgan hollarda o'qitildi. Shuning uchun ham bu davrda ilmiy muhit yuksalishi kuzatilmadi. Temuruylar davridagi astronomik tadqiqotlar, Ulug'bek maktabi yoki nozik ilmiy tajribalar qayta tiklanmadi.

Biroq, Shayboniylar davri ilmiy hayotining muhim jihati shundaki, diniy fanlarda chuqurlik va sifat jihatdan o'zgarishlar yuz berdi. Fiqh ilmida yangi qarashlar, murakkab masalalarga bag'ishlangan risolalar yaratildi. Hadisshunoslik rivojlandi, mashxur allomalarning hadis to'plamlariga o'nlab sharhlar yozildi. Bu sharhlar o'z navbatida mintaqaning ilmiy miqyosini oshirdi.

Shayboniylar davrida Temuriylardan qolgan qo'lyozmalar, ilmiy risolalar va kutubxonalar saqlab qolinib, ular madrasalarning asosiy manbai bo'lib xizmat qildi. Xattotlik san'ati rivojlandi, qo'lyozma kitoblar nafis uslubda ko'chirildi. Bu jarayon ilmiy ma'lumotlarning kelgusi avlodlarga yetib borishiga xizmat qildi. Kutubxonalar faqat kitob saqlanadigan joygina emas, balki ilmiy muhokamalar, darslar va bahslar o'tkaziladigan maskan sifatida ham faoliyat yuritdi. Shayboniy hukmdorlarning ko'pida, masalan, Muhammad Shayboniyxon,





Ubaydullaxon va Abdullaxon II kabi hukmdorlarning ilmga hurmati kuchli bo'lib, ular o'z saroylariga mashxur olimlarni taklif etishar, ilmiy suhbatlar uyushtirar edilar[4.115-123].

Madaniy hayot ham ilmiy muhit bilan uyg'un holda rivojlandi. Me'moriy inshootlar bunyod etilishi, madrasalar, masjidlar, xonaqohlar va karvonsaroylar barpo qilinishi bu davrning madaniy qiyofasini belgiladi. Me'morchilikda nafis g'isht terish, rangli koshinlar ishlatish, naqsh va bezaklarning xilma-xilligi o'z aksini topdi. Ayniqsa Buxorodagi Mir Arab, Abdulazizxon, Ko'kaldosh madrasalari, Kalon juma masjidi bu davrning madaniy yodgorliklari sifatida ajralib turadi. Ularning bezaklarida ilm, tafakkur va ma'rifat ramzlari bo'lgan yozuvlar, hadislar yoki Qur'on oyatlari ko'p uchrashi madaniy an'ananing ilm bilan uyg'unlashganini ko'rsatadi[1.571].


Adabiyot ham bu davr madaniy hayotining muhim qismi bo'lib qoldi. Turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan shoirlar ko'p edi. Shoirlar jamiyatning axloqiy muammolari, ijtimoiy tengsizlik, diniy poklik masalalarini o'z asarlarida yoritdilar.

Shayboniylar davri ilmiy muhitida ijobiy jarayonlar bilan bir qatorda muayyan cheklovlar ham mavjud edi. Avvalo dunyoviy bilimlarning cheklanishi, falsafa ilmiga bo'lgan ehtiyotkorlik, yangi ilmiy tajribalar o'tkazilishining sustligi mintaqaning ilmiy rivojida to'xtalishlar keltirib chiqardi. Davlat ko'proq diniy barqarorlikka intilgani sababli ilm-fan sohasiga investitsiya yetarli darajada kiritilmadi. Temuriylar davrida shakllangan astronomiya, matematika va geodeziya maktablari asta-sekin o'z faolligini yo'qotdi. Biroq diniy ilmlar rivojida yuksalish Movarounnahrni musulmon olamida ilmiy markaz sifatida saqlab turdi.

Ushbu davr ilmiy-madaniy muhitining umumiy ko'rinishi shundan iboratki, Shayboniylar madaniy hayotni rivojlantirishga harakat qilgan bo'lsalarda, dunyoviy fanlar sohasida avvalgi avlodlarning yuksak ilmiy an'alarini qayta tiklash imkoniyatiga ega bo'lmadi. Ammo ular madrasalar, kutubxonalar, me'moriy obidalar va diniy-ilmiy maktablar orqali Movarounnahrning ilmiy yodgorliklarini saqlab qoldilar.

### **Xulosa**

Shayboniylar davri Movarounnahr tarixida siyosiy barqarorlik tiklangani, davlat boshqaruvi markazlashgani va ilmiy-madaniy hayotning muayyan darajada jonlangan davr sifatida alohida o'rin tutadi. Sulola hukmronligi davomida madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlarning faoliyati tiklanib, diniy ilmlar chuqur o'rganildi. Fiqh, hadis, tafsir kabi diniy sohalar chuqur





o'rganildi. Bu esa mintaqaning musulmon olamidagi nufuzini saqlab qolishga xizmat qildi. Shu bilan birga, Shayboniy hukmdorlarning ilm-fanni rag'batlantirishga bo'lgan say-harakatlari, jumladan, ulamolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashi, madrasalar qurilishi va moddiy ta'minotiga mablag' ajratishi ilmiy hayotning barqaror rivojlanishiga olib keldi. Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II kabi hukmdorlar o'z saroyida ilmiy suhbatlar va munozaralarga boy bo'lgan majlislar o'tkazgani va bu majlislarda shaxsan o'zlari olim sifatida qatnashganlari ayniqsa ahamiyatlidir. Biroq, ushbu davrning ilmiy-madaniy hayotida ayrim cheklanishlar bo'lib, ayniqsa mantiq, falsafa, astranomiya va matematika kabi dunyoviy fanlar avvalgi- Temuriylar davridagidek yuksak darajaga ko'tarila olmadi. Ulug'bek astranomiya maktabi, ilmiy tajribalar yoki dunyoviy ilm maktablari qayta tiklanmadi. Ilmiy faoliyatning diniy sohalar bilan cheklanib qolishi mintaqaning umumiy ilmiy salohiyatining pasayishiga olib keldi.

Umuman olganda, Shayboniylar davrida yuzaga kelgan ilmiy-madaniy jarayonlar keyingi asrlarda Movarounnahrda ilm-fanning rivojida muhim tarixiy bosqich bo'lib xizmat qilgan. Tadqiqot davomida olingan natijalar mazkur davrning madaniy hayotini chuqurroq anglashga, uning tarixiy ahamiyatini baholashga va ilmiy merosning bugungi kun uchun ham dolzarb ekanini ko'rsatishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulqodr Majid. Shayboniylar davlati. Toshkent: Nasim Kutub, 2024. –B. 510-573.
2. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. "Sharq" Nashriyot-Matbaa Kanserni Bosh Tahriryati, Toshkent: 1999. –B. 277.
3. Vatan Tarixi. "Sharq" Nashriyoti-Matbaa Aksiyadorlik Kompaniyasi Bosh Tahriryati, Toshkent: 2010. 2-kitob, –B. 28.
4. Anvar Erqo'ziyev. Buxoro xonligi tarixi. O'quv qo'llanma. Namangan: 2018. –B. 115-123.
5. Muhammad Solih. Shayboniynoma. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. –B. 89.
6. Hasanxo'ja Nisoriy. Muzakkiri Ahbob. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq Merosi nashriyoti, 1993. –B 20.
7. П.П. Иванов. Очерки по истории Средней Азии. Издательство Восточной Литературы. Москва: 1958. С. 80-81.
8. Fazlulloh ibn Ro'zbexon. Mehmonnomayi Buxoro. –B. 88.





9. Xo'ja Samandar Termiziy. Dastur ul-muluk. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000. –B. 45.
10. Ziyodulla Muqimov. Shayboniylar davlati va huquqi. Toshkent: Adolat nashriyoti, 2007. –B. 70-71..

